

# **INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI**

**Tojiyev Javlonbek Rustamovich**  
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*  
*mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inklyuziv iqtisodiy o'sishning nazariy va uslubiy jihatlari tahlil qilinadi va inklyuziv o'sishning asosiy nazariy konsepsiyalari, uning iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlik bilan bog'liqligi, shuningdek, davlat siyosati va xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan samarali uslublar ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik, xalqaro tajriba, yalpi ichki mahsulot, strategiya, innovatsiya, investitsiya.

**Abstract:** This article analyzes the theoretical and methodological aspects of inclusive economic growth and considers the main theoretical concepts of inclusive growth, its relationship with economic growth and social stability, as well as effective methods developed on the basis of state policy and international experience.

**Key words:** inclusive economic growth, social stability, international experience, gross domestic product, strategy, innovation, investment.

## **Kirish.**

Jahon tajribasiga ko'ra, inklyuziv iqtisodiy o'sish bandlik imkoniyatlarini yaratadi va odamlami kambag'allikdan xalos qiladi.

Inklyuziv iqtisodiy o'sish – bu iqtisodiy rivojlanishning barcha qatlamlarini, ya'ni barcha ijtimoiy guruhlar, etnik va diniy jamoalar, gender va yoshni hisobga olgan holda, ijtimoiy tenglikni ta'minlashni nazarda tutadi. U nafaqat yalpi ichki mahsulot (YIM) o'sishi, balki ushbu o'sishning keng aholi qatlamlariga taqsimlanishi, ish o'rnlari yaratilishi va iqtisodiy resurslardan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Inklyuziv o'sishning asosiy maqsadi – iqtisodiy o'sishning ijtimoiy jihatlarini ham inobatga olib, iqtisodiy taraqqiyotdan barcha qatlamlar foyda ko'rishini ta'minlashdir.

Bundan tashqari, inklyuziv iqtisodiy o'sish nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki ijtimoiy barqarorlikni ham saqlashga yordam beradi. U ijtimoiy tarangliklarning oldini olish, jamiyatda tengsizlikni kamaytirish va barcha fuqarolarga teng imkoniyatlar yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ushbu jarayonda davlat siyosati, o'zgaruvchan bozor sharoitlari, ijtimoiy muhofaza tizimlari va ta'lim sohasidagi investitsiyalarning o'rni nihoyatda katta.

## **Adabiyotlar tahlili va metodologiya.**

"Inklyuziv iqtisodiy o'sish" tushunchasi birinchi marta Jahon banki tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda qo'llanilgan. Jahon amaliyotida iqtisodiy o'sish sifati va ijtimoiy masalalar bilan uyg'unlikda talqin qilinadigan inklyuziv o'sishni xorijiy adabiyotlarda ko'rishimiz mumkin. Jumladan, ingliz tilida M.Spens, R.Solou, E. Korso, C. Sen, P.Vellala, M. Madala, U.Chhattopadxay,

K.Aoyagi, G.Ganelli, R.Anand, S.Mishra, S.Peyris, A.Smit, D.Rikardo, J.Milla, Y.Shumpeter, E.Domar, J.Keyns, A.Xansen, R.Xarrod, D.Barro, P.Romera, R.Lukas, S.Rebelolar tadqiqotlar amalga oshirishgan.

Rus tilida amalga oshirilgan ishlarda ham mamlakatda inklyuziv o'sishga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilingan. Jumladan, Баринова В.А., Земцов С.П., Левенков А., Клейнер Г.Б., Казакова А.А., Шарафутдинов Р.И., Измайлова Д.О., Ахметшин Э.М., СморгуновЛ.В., Андриевская В.Б., ЦурановаС., Краснокутский П.А., Змияк С.С., Яровая Н.С. lar tadqiqotlar qilishgan.

O'zbekistonmng texnik rivojlanishi, qavta ishlab chiqanshlarini rivojlantirish, tarkibiy o'zgarishlar, o'sish omillari va uning umumiyligi nazariy jihatlari asosida inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Jumladan, S.G'ulomov, K.Abdurahmonov, U.Madraimov, A.Xudoyqulov, K.Mambetjonov, Sh.Mustafaqulov, A.Usmonov, A.Bekmurodov, D.Artikova, I.Iskanderov, N.Toxliyev, O.Hikmatov, T.Jorayev, U.G'afurov, Sh.Shodmonov, M.Asqarova, A.Rasulev, A.Qodirov, M.Mamatov, M.Bostonov, N.Karimov, Sh.Yo'ldoshev, N Mahmudov, Y.Muhammedov, X.Abulkosimov, B.Berkinov, A.Vaxabov, S.Chepel, I.Qayumova, T.Shodiyevlarning ilmiy asarlarida yoritilgan.

### **Tahlil va natijalar.**

Shuningdek, u asosiy davlat xizmatlarini ko'rsatish maqsadida hukumatlar foydalanimishi mumkin bo'lgan resurslarni oshiradi. 2015-yilda BMTga a'zo davlatlar 2030-yilgacha barqaror rivojlanish dasturini qabul qildilar. Ushbu dastur iqtisodiyotning inklyuziv o'sishini oshirish vazifasiga alohida e'tibor qaratadi. Bugungi kunda iqtisodiy o'sishning tezlashtirilgan omillarini faollashtirishga dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Dunyoda barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning bir qator muammolarini ilmiy hal etishga qaratilgan maqsadli ilmiy tadqiqotlar tashkil etilgan. Shu munosabat bilan yalpi icliki mahsulotning (YIM) o'sishi va uning omillaridan maqbul va oqilona foydalinish, darajasini va mehnat unumdarligini hamda samaradorligini oshirish, makroiqtisodiy siyosatning tegishli vositalarini qo'llash orqali barqaror iqtisodiy o'sish sifatini oshirish usuli asosida iqtisodiy o'sislarning ijtimoiy jihatlarini rivojlantirish yondashuvlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiy o'sish omillaridan samarali foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasida muhim vazifalardan biri "Fuqarolarnmg ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rinnari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'mmlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi" deb belgilandi. Ushbu vazifalami samarali bajarish bilan inklyuziv iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi muhim omillarni aniqlash, ko'rsatkichning o'sishi innovatsiyalar va inklyuziv o'sishga qarab yalpi mehnat unumdarligi omillari, makrova mikromiqyosli hisob-kitoblamning uslubiy bazasini takomillashtirish,

innovatsiyalar dinamikasi va yalpi mehmat unumdarligi omillarining o'zgarishini hisobga olgan holda ko'p o'zgaruvchan prognozlarni tuzish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar sohasini kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-436-sonli, 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli, 2018-yil 1-avgustdag'i "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5495-sonli, 2019-yil 14-maydag'i "O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning sifat jihatidan yangi tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5717-sonli va 2019-yil 29-apreldagi "Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarini jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4300-son qaror va farmonlarida belgilangan muhim vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

### **Takliflar va yangiliklar.**

Ushbu masalaning ilmiy-uslubiy jihatlarini ishlab chiqishga, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi sifatini oshirishga ta'sir ko'ratuvchi omillarni, tarmoqlarni tadqiq etish bo'yicha amaliy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishga yetarlicha e'tibor berilmayapti. Inklyuziv iqtisodiy o'sishni kompleks o'rganish ishlari olib borilmayotganligi, milliy iqtisodiy tizimning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ushbu masalani o'rganish zarurati ushbu mavzuni tanlash uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy natijalar va yangiliklar amaliyotga tatbiq etilgan:

- mamlakatda inklyuziv o'sishni baholash uchun ixtisoslashtirilgan indeks ishlab chiqildi, bu esa uni inklyuzivlikning turli jihatlariga asoslangan holda hisoblash metodologiyasini yaratishga olib keldi (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining 2023-yil 23-iyundagi 26-11668-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu uslub ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni aniqroq va asoslangan holda rejalashtirish imkoniyatini yaratdi.

2024-2028-yillarda O'zbekistonda inklyuziv o'sishni prognoz qilish uchun ekonometrik model yaratildi, bu inson kapitalining bir bandga ko'payishi inklyuziv o'sishning 0,7 bandga o'sishiga olib keladi (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining 2023-yil 23-iyundagi 26-11668-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu tadqiqot ta'lim va sog'liqni saqlashga investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillari sifatida muhimligini ta'kidladi.

Aholining turmush sifatiga ta'sir etuvchi ko'plab omillami yetarlicha hisobga olmagan holda, oilalarni kam ta'minlanganlar ro'yxatiga kiritish mezonlarini takomillashtirish va kambag'allikni yengishga yordam berish mexanizmini yaratish zarurligiga asoslangan, bu esa "temir daftar"ni joriy etishga olib keldi, bu ijtimoiy muammolami tizimli hal qilishni va muhtoj oilalarni qo'llab-quwatlashni

yaxshiladi (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining 2023-yil 23-iyundagi 26-11668сонли ма'lumotnomasi). Ushbu yaxshilanish resurslarni yanada samarali taqsimlashga va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga olib keldi.

Inklyuziv iqtisodiy o'sishga makrodarajada ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash yondashuvi takomillashtirilgan, bunda inklyuziv rivojlanishga ko'maklashish uchun muayyan jihatlarga dastlabki e'tibor berish muhimligiga e'tibor qaratildi (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining 2023-yil 23-iyundagi 26-11668-son ma'lumotnomasi).

Ushbu yondashuv hukumatga aholining barcha qatlamlarining haqiqiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda iqtisodiy siyosatga ko'proq maqsadli ta'sir ko'rsatishga imkon berdi.

### **Xulosa.**

Inklyuziv o'sishni ta'minlashda samarali uslublar, jumladan, davlatning siyosiy va iqtisodiy roli, barqaror ijtimoiy tizimlar yaratish, xususiy sektorni rag'batlantirish va xalqaro hamkorlik kabi yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Bularning barchasi jamiyatdagi tengsizliklarni kamaytirishga, turli guruhlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga, shuningdek, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Shunday qilib, inklyuziv iqtisodiy o'sish – bu uzoq muddatli va kompleks jarayon bo'lib, uni amalga oshirishda barcha davlat va ijtimoiy institutlar o'zaro hamkorlikda ishlashi zarur. Faqatgina bunday yondashuvlar yordamida jamiyatdagi barcha qatlamlar uchun barqaror va teng imkoniyatlar yaratiladi, bu esa umumiy farovonlikni oshirishga olib keladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Bin Zhou, Xiaoyan Zeng, Lu Jiang, Bing Xue. Quality Economic Growth under the Influence of Technological Innovation Preferences in China: Numerical Simulation from the Perspective of Public Finance. Structural Change and Economic Dynamics. Volume 54, September 2020, pages 163-172.
2. Quality of Growth: Monograph / V. Thomas, M. Dailami, A. Dhareshwar et al.: Salnikov A. - Moscow: VesMir, 2001. p. 29.
3. Solow R. Growth Theory: An Exposition (2nd edition). Oxford: Oxford University Press, 2000. - 190 p.
4. Charles I. Jones. Introduction to Economic Growth / Charles I. J. Stanford University. 1997. - 200 p.
5. Lucas R. Lecture on Economic Growth / R. Lucas: Translated from English by D. Shestakova. - Moscow': Gaidai' Institute Publishing House, 2013. - 288 p.
6. БАРИНОВА. В. А., & ЗЕМЦОВ, С. П. (2019). Инклюзивный рост и устойчивость регионов России. *Регион: экономика и социология*, (1), 23-46.
- ЛЕВЕНКОВ, А. (2015).
7. Инклюзивный рост: понятие, индикаторы, международный опыт. *Банковский вестник*, (12), 41-46.
8. Iqtisodiy o'sishning O'zbekistonda kam ta'minlangan aholining qisqarishiga ta'siri. Mualliflar to'plami tahrir. Chasovnya S. - T.: 2012;

9. Qayumova I. O'zbekistonning yangi sifat bosqichi iqtisodiy rivojlanishi jarayonlarini iqtisodiy tadqiq qilish. Iqtisodiy fanlari doktori dissertatsiyasi. - T.: 2012. - 289 b.

10. Shodiev T. Modernizatsiya, intelektualliashtirish va diversifikatsiya asosida iqtisodiy o'sish sifatini oshirish // Ilmiy elektron jurnal "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar". - T.: 2011, № 1.

11. S.Kapella «Iqtisodiy rivojlanishga o'tishda institutsionai omilning roli». "Modernizatsiya strategiyasi va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sislini ta'minlash" III O'zbekiston iqt.sodchilar forumi nashrlar to'plami. IPMI, GIZ, BMTTD, Toshkent, 2017.

12. Vahabov A. Iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash metodologik jihatlari // O'zbekiston iqtisodiyotining institutsionai rivojlanishi: yutuqlar, muammolar, yechimlar yo'liari konferentsiyasi materiallari. - T.: TDIU, 12.03.2016.

## XORIJY OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIYAVIY REJALASHTIRISH AMALIYOTLARI VA BARQAROR MOLIYALASHTIRISH MODELLARI

**Xurramov Jonibek Rustamovich**  
Toshkent shahridagi Turkiyaning  
Iqtisodiyot va Texnologiyalar Universiteti,

**Annotatsiya:** Mazkur tadqiqotda xorijiy oliv ta'lismuassasalarida moliyaviy rejalashtirish amaliyotlari o'rganilib, ularning oliv ta'lismuassasalarining barqarorligi, samaradorligi va rivojlanishiga bo'lgan ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda moliyalashning turli modellari hamda xorijiy oliv ta'lismuassasalarining moliyalashtirish manbalari va mexanizmlarining o'rni ko'rib chiqilgan. Yevropa mamlakatlaridagi oliv ta'lismizalarining moliyalashtirish amaliyoti tahlil qilinib, barqaror moliyalashtirish modelini yaratish bo'yicha takliflar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** Oliy ta'limi moliyalashtirish, moliyaviy rejalashtirish modellari, oliv ta'lismuassasalari (OTM), byurokratik moliyalashtirish modeli, jamoaviy moliyalashtirish modeli, bozor tamoyillariga asoslangan moliyalashtirish, blok grantlar, oliv ta'lismavzumiyasi, davlat mablag'larini taqsimlash, Yevropa oliv ta'limi, ta'lim subsidiyalari.

Oliy ta'lismuassasalarida moliyaviy rejalashtirish strategik boshqaruvning ajralmas qismi hisoblanadi. Xorijiy amaliyotni, ayniqsa rivojlangan davlatlarning oliv ta'lismuassasalaridagi moliyaviy rejalashtirish amaliyotidagi tajribasini o'rganish moliyaviy resurslarni samarali boshqarish va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash bo'yicha muhim tajribalarni o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda oliv ta'limga bo'lgan talabning oshib borishi fonida, dunyodagi turli mamlakatlarda OTMlar faoliyatiga mos ravishda moliyaviy rejalashtirish strategiyalari ishlab chiqilgan bo'lib, ularda asosan e'tibor moliyaviy manbalar, resurslarni to'g'ri taqsimlash va moliyaviy boshqaruv masalalarini hal qilishga